

**“SUNANI TERMIZIY” ASARIDA QIYOSIY FIQH ILMIGA
DOIR MASALALARING YORITILISHI**

*Abdusattorov Ilhom Baxriddinovich,
O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi
Islomshunoslik va islam sivilizatsiyasini o‘rganish
ICESCO kafedrasи tayanch doktoranti.
ilhomabdusattorov1985@gmail.com*

Kalit so‘zlar: “Sunani Termiziy”, fiqh, kufa ahli, hanafiylik, molikiylik, shofeiylik, hanbaliylik, rivoyat, diroyat.

“Sunani Termiziy” asari “olti eng ishonchli hadis to‘plamlari”ning biri bo‘lib, Abu Iso at-Termiziyning uzoq yillik mashaqqatli ilmiy faoliyatining mahsulidir. Ushbu asar shariatning “Qur’oni karim”dan keyingi ikkinchi masdari hisoblangan sahif hadislarning to‘rt mingga yaqinini o‘zida jamlagan. “Sunani Termiziy”ni o‘qigan kishi shariat ilmlariga tegishli ko‘p ilmlar majmuasiga ega bo‘ladi.

Alloma ushbu kitobidagi hadislarni fiqhiy mavzular bo‘yicha boblarga ajratib jamlagan va “tahorat” bobi bilan boshlagan. Shuning uchun ushbu asar “sunan” turkumidagi hadis to‘plamlariga qatoriga kiritilgan. Shu bilan birga, ushbu kitobda siyrat, odoblar, tafsir, aqoid, fitnalar, qiyomat alomatlari, fiqhiy hukmlar va manoqiblar mavzulari jamlangan bo‘lib, bu jihatidan “jome” turkumiga kiritilgan. Bu esa asarning o‘ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi.

Imom Termiziyning hadislarni tahqiq qilishi, hadisning rivoyati va diroyati, jarh va ta’dil kabi ilmlarni o‘rganishida o‘z davrining buyuk muhaddis olimlari imom Dorimiy, Abu Zur’a ayniqsa, Muhammad ibn Ismoil Buxoriy bilan bo‘lgan ilmiy munozaralarining o‘rni beqiyosdir.

Imom Termiziy buyuk muhaddis sifatida hadis ilmining turli masalalarini chuqr o‘rganish bilan bir qatorda u hadislarda aks etgan fiqhiy masalalarni tadqiq etish hamda to‘rt mo‘tabar mazhablar: hanafiylik, molikiylik, shofeiylik va hanbaliylik ta’limotlarini o‘rganishga ham alohida ahamiyat bergen. Jumladan, Hijozda Imom Molik va uning shigirdi Abu Mus’ab Zuhriy, Imom Shofeiyning shogirdlaridan Hasan ibn Muhammad Za’faroniy hamda Robe’ ibn Sulaymon kabi faqihlardan fiqhga oid ilmlarni o‘rganadi.

Allomaning fiqh bo‘yicha alohida kitoblari bo‘lmasa ham “Sunani Termiziy”da tobeinlar, mazhab imomlari va boshqa mushtahid olimlarning fiqhiy qarshlarini qiyosiy jihatdan chiroyli uslubda yoritilganligining o‘zi uning fiqh ilmidagi mevqeini belgilab beradi.

Imom Termiziy o‘ziga ma’lum faqih va mujtahidlarning dalillarini to‘plashga

harakat qilgan. Har bir faqihning dalili alohida bobda keltirilgan. Har bir bobda faqih va mujtahidlarning fiqhiy qarashlari, bobdagi hadisdan chiqariladigan fiqhiy hukmlar ham aytib ketilgan. Uni o‘qigan kishi fiqhga taalluqli “ahkom” hadislarning va fiqhiy qarashlarning katta zahirasini qo‘lga kiritadi.

Ushbu asarning yana bir muhim fazilatlaridan biri, unda mazhab jihatlari hisobga olingan, turli fiqhiy masalalarda mazhab imomlarining qarashlari keltirib o‘tilgan. Hanafiylik mazhabi fatfolari “Kufa ahli”ning fikri yoki Ibrohim an-Naha’iy, Sufyon Savriy, Abdulloh ibn Muborak, kabi shu mazhab olimlarining qarashlari sifatida qayd qilib borilgan.

Qadimiylar mazhablarni o‘rganishda “Sunani Termiziy” asarining ahamiyati beqiyosdir. Masalan, imom Avzoiy, Sufyon as-Savriy, Ishoq ibn Rohavayh kabi mujtahidlarning mazhablari uzoq yillar amalda joriy bo‘lgan. O‘tgan asrimizning eng mashhur ulamolaridan alloma Abul Hasan Ali al-Hasaniy an-Nadaviy (pahmatullohi alayh) shunday deydi: “Bugungi kunda “qiyosiy fiqh” deb nomlangan mavzuga biringchi bo‘lib Termiziy asos solgan bo‘lib, u yuksak fazilat sohibi edi. Bugungi ummat uning o‘z zamonasidagi ijтиҳод мактаби fiqhini saqlashdagi о‘rnini alohida e’tirof etmog‘i lozim. Agar Imom Termiziy bo‘lmaganida zamon o‘tishi bilan ko‘p ilmlar izsiz yo‘qolib ketgan bo‘ldi. Vaholanki, u zotning “Jome”” (“Sunani Termiziy”) asari hadis va sunnat kitoblari orasida yaqqol ajralib, murojaat qilinadigan manbalar ichida eng ishonchlisidir. Ayniqsa, Avzo‘iy, Savriy, Ishoq ibn Rohavayh mazhablari kabi yo‘qolayozgan mazhablarni bilishda bu zotning asarlari alohida o‘rin tutadi. Bu asarning yana bir o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, (mutaaxxir) keyingi davr olimlariga Shofe’iyning qadim mazhabini saqlab qolganidir”.

“Sunani Termiziy”ning dastlabki sharhlaridan biri bo‘lgan “Orizatul ahvaziy” asarining muallifi Ibn al-Arabiy Imom Termiziyning kitobida 14 ta ilm borligini qayd qilib o‘tgan. Kitobning yana bir sharhi “Nafhush shaziy” asarining muallifi Ibn Sayyidinnas ushbu ilmlarga yana qo‘srimcha qilib, 25 taga yetkazgan. Mazkur 25 ta ilmlarning ichida amal qilingan hadislarni bayon qilish, amali tark qilingan hadislarni bayon qilish, ulamolarning rivoyatlarni qabul yoki rad qilishdagi ixtiyoflari, hadisning ta’vilidagi ulamolarning turli qarashlarini yoritib berish kabi fiqhga doirlar ilmlar ham bor.

Yuqorida ta’kidlanganimizdek, Imom Termiziy nafaqat buyuk muhaddis, balki buyuk mujtahid ham bo‘lib hadislarning diroyati (fiqhi)ni ham bayon qilishda benazir olimlardan biri bo‘lgan. Allomaning bu boradagi yuksak iste’dod sohibi bo‘lganligiga “Sunani Termiziy”dan ba’zi misollarnini keltiramiz.

Jobir (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilinadi, u dedi: “Rasululloh sollallohu alayhi va sallam va men ul zoti sharif bilan (ko‘chaga) chiqdik. Shunda ansoriylardan bir ayolning huzuriga kirdik. Ul zoti sharif uchun qo‘y so‘yilgan ekan. Ul zot yedilar, so‘ng bir xalta xurmo keltirildi, undan ham yedilar. So‘ngra peshinga tahorat qildilar

va namoz o‘qidilar. So‘ng qaytib keldilar, ul zotga qo‘yning ortib qlgan joylaridan keltirildi. Bas, undan yedilar. So‘ng asr namozini tahorat qilmasdan o‘qidilar.”

Imom Termiziy “olov o‘zgartirgan narsadan tahorat olmaslik” bobida Jobir (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilingan ushbu hadisni keltirib, yana ushbu masala bo‘yicha qaysi sahobalardan rivoyat mavjudgini va kimning hadisi sahihroq ekanligini aytib o‘tadi. Keyin bu hadis borasida mujtahid olimlarning qarashralarini quyidagicha bayon qilidi: “Abu Iso (rahmatullohi alayh) dedilar: Payg‘ambar (sollallohu alayhi va sallam)ning sahobalari va tobeinlar hamda ulardan keyingilar – Sufyon as-Savriy, Ibn al-Muborak, ash-Shofeiy, Ahmad va Ishoq kabi ahli ilmlarning ko‘pchligining fikricha, amal shungadir. Ular olov tekkan narsadan tahorat qimaslik kerak deb hisoblaganlar. Bu Payg‘ambar (sollallohu alayhi va sallam)dan (sunnat) bo‘lgan ikki ishning oxirgisidir. Ushbu hadis avvalgi hadis – olov tekkan narsadan tahorat olish haqidagi hadis uchun nasx(hukmini bekor) qiluvchidir”.

Xulosa qilib aytganda, “Sunani Termiziy” asari hadis ilmlari bilan birga, mujtahid olimlarning fiqhiy qarashlari va qiyosiy fiqh ilmiga oid ko‘plab ilmlarni o‘zida jamlagan mo‘tabar manbalardan biridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abu Iso at-Termiziy .“Sunani Termiziy” sharhi. 1-2-Jild. Sharhlab, nashrga tayyorlovchilar: H.Aminov, M.Ismoilov, H.Abiyeb, B.Abdullayev. – Toshkent: Irfon-Nashr, 2021.
2. Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy. Jome’ as-sunan. (Saylanma). (Matn)/Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy; Tarjima va izohlar mualliflari: H.Aminov, M.Ismoilov, B.Abdullayev; Mas’ul muharrir O.Qoriyev; O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti – Toshkent: Movarounnahr, 2018. – 320 b.
3. Cho‘tmatov J. Imom Abu Iso at-Termiziy: hayoti va ijodi sahifalari. – Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyoti, 2019. – 176 b.
4. Odilxon qori Yunusxon o‘g‘li. Muhaddis va faqih alloma. – Toshkent: Movaronnahr, 2017. – 96 b.
5. Buyuk Termiziylar: Termiz tazkirasi / Musannif Mirzo Kenjabek. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashryoti, 2017.
6. Hamroqulov J. Imom Abu Iso Muhammad Termiziy. – Toshkent: Movarounnahr, 2017. – 216 b.
7. Uvatov U.,Usmonov U. Termizlik ikki alloma. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2017.– 144 b.